

Rabiyev Bobomurod Baxadirovich,
“Oila va xotin qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti tadqiqotchisi



XORIJIY DAVLATLARDA AJRALISHNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Annotatsiya. Oila jamiyatning o‘zak-negizi hisoblanib, oilalarning buzilishi jamiyatga salbiy tasir etadi. Ajralishning ijtimoiy oqibatlari tug‘ilishning kamayishi, oilada tarbiyani yomonlashishi, mehnat unumdorligining pasayishi, salomatlik ko‘rsatkichlarining yomonlashishi, o‘limning ko‘payishi, alkogolizmning kuchayishi, qarindoshlik munosabatlariga putur yetishi, o‘z joniga qasd qilishga urinishlarning ko‘payishi, ruhiy kasalliklar xavfining ortishiga sabab bo‘ladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ajrimlar soni ortib bormoqda. Bunday salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida xorijiy davlatlarda qilinayotgan ishlarni o‘rganib chiqish va ayrimlarini milliy qadriyatlarga mos holda tatbiq etish maqolani asosiy maqsadi hisoblanadi.

Аннотация. Семья считается ядром общества, и распад семьи оказывает негативное влияние на общество. К социальным последствиям развода относятся снижение рождаемости, ухудшение семейного воспитания, снижение производительности труда, ухудшение показателей здоровья, рост смертности, рост алкоголизма, разрыв родственных отношений, рост попытки, самоубийств, риск психических заболеваний. В последние годы в Узбекистане увеличивается количество разводов. В целях предотвращения подобных негативных последствий основной целью является изучение работ, сделанных в зарубежных странах, и применение некоторых из них в практиках в соответствии с национальными ценностями.

Annotation. The family is considered to be the core of society, and the breakup of the family has a negative impact on society. The social consequences of divorce include a decrease in the birth rate, a deterioration in family education, a decrease in labor productivity, a deterioration in health indicators, an increase in mortality, an increase in alcoholism, a break in family relationships, and an increase in suicides, attempts, and the risk of mental illness. In recent years, the number of divorces has been increasing in Uzbekistan. To prevent such negative consequences the main purpose is to study the work done in foreign countries and to put practice some of them in accordance with national values.

Tayanch soʻzlar: *demografik inqiroz, oila institutlari, ijtimoiy soʻrov, ijtimoiy koʻmak, psixologik yordam, yosh oilalar, ajrimlar.*

Ключевые слова: *демографический кризис, институты семьи, социальный опрос, социальная поддержка, психологическая поддержка, молодые семьи, разводы.*

Keywords: *demographic crisis, family institutions, social survey, social support, psychological support, young families, divorces.*

Kirish. Hozirgi kunga kelib ajralish va oilalarning buzilishi global darajaga yetib keldi. Va bundan nafaqat oilalar jamiyat ham zarar koʻryapti, ajralish amalda juda koʻp muammolarni keltirib chiqarmoqda, masalan, uy-joyga boʻlgan talabning ortishi (ajrimdan soʻng alohida yashash tufayli) aliment hisobiga oilalar daromadi kamayishi, shuningdek, ajralish inson ruhiy holatiga ham taʼsir koʻrsatib kishilarning oʻzaro munosabatlarida, ish joyida, ishlab chiqarishda nosogʻlom muhit yuzaga kelishga sabab boʻladi. Bundan tashqari, ota yoki onani alohida yashashi, farzand axloqi va tarbiyasiga jiddiy zarar yetkazib ularni bilim darajasini pasayishiga jamiyatda oʻz-oʻrnini topishida muammolarni keltirib chiqaradi. Oilalarni buzilishi quda-andachilikka ham, qarindosh-urugʻchilikka ham moddiy-maʼnaviy zarar yetkazayotgan juda katta ijtimoiy muammolardan hisoblanadi. Shu oʻrinda savol tugʻiladi: Agar nikohlanish va ajrashish ixtiyor boʻlsa, nega davlat organlari, oila institutlari buning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqarmoqda? Ajrimlar sababli jamiyatda yolgʻiz insonlar koʻpayishi, oilalarning buzilishi va ajrim masalalariga oʻz vaqtida samarali eʼtibor berilmasa, demografik tanazzulga, yoki ayrim millatlarning yoʻqolishiga, oila mezonlarining buzilishiga, yetim bolalarning jinoyat olamiga kirib ketishiga va boshqa koʻngilsiz holatlarning paydo boʻlishiga olib keladi.

Tadqiqot metodlari. 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”da erkak va ayol “ajrashish paytida va nikoh paytida nikohga teng huquqlarga ega” boʻlishi va nikoh faqat “boʻlajak er-xotinning erkin va toʻliq roziligi bilan” oʻrnatilishi kerakligi taʼkidlangan. Nikoh toʻgʻrisidagi bunday qarashlar patriarxal oila kabi tarixiy muqobil shakllardan farqli oʻlaroq, zamonaviy egalitar individuallikka asoslangan (Wang & Schofer, 2018). Dastlab oilalarning ajralish sabablarini tizimli oʻrganish amerikalik sotsiolog U.Gudom tomonidan ishlab chiqilgan, keyinchalik ajralish sabablari dinamikasini Dj. Levinger oʻrgangan. Yapon sotsiologi, professor Tadashi Fukutake: “Oila qurmoqchi boʻlganlar oʻzlarining shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib oilaning umumiy manfaatlari uchun turmush quradilar”¹. Ularning

¹ Japanese Society Today 1974. Tokyo. P-151

maqsadlari oila obroʻsi va mavqeyini jamiyat oldida saqlab turishdir. Aksariyat yapon oilalari oilada erkak kishini boshliq boʻlishini tabiiy deb bilishgan, demak, ular uchun oila manfaati hamma narsadan ustundir. Rossiya oila va demografiya institutlari ilmiy xodimlari A.G. Xarcheva, A.I. Antonova, V.A. Borisova tomonidan oʻrganilib, taqqoslash va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Yuqorida sanab oʻtilgan hodisalarga yoʻl qoʻymaslik uchun mamlakatlarda oilani barqaror saqlab qolish maqsadida turli xil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, maqolamizning maqsadi ham xorijiy davlatlardagi demografik muammolardan hisoblangan ajrim masalalarini kamaytishga qaratilgan dastur va qonun qarorlarni koʻrib chiqamiz. Ajrashishning yuqori boʻlishi rivojlangan davlatlar uchun oʻziga xos jihat hisoblanib bu jarayon Rossiyada AQShdan soʻng 2-oʻrinda turadi va bu holat soʻnggi 10 yil davomida oʻzgarmay kelmoqda. Rossiya Federatsiyasida 1950-yillarda ajralish har 1000 kishiga 1 tadan kam boʻlgan boʻlsa, 1965-yilda ajralishning huquqiy jihati yengillashgandan soʻng qonuniy ajrimlar soni ortdi. 1990-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy inqiroz davrida ajralishlar soni barqarorlashdi, yaʼni 1000 kishiga 4-5 ajrim toʻgʻri keldi. Ammo hozirga kelib oilalarning buzilishi rekord darajaga yetib keldi, 2021-yil 799 ming oila qurilgan 537 mingtasi ajrashgan, 2022-yil 868,7 ming oila qurilgan 567 mingida ajrim qayd etilgan. Rossiyada oʻtkazilgan soʻrovnomalar tahliliga koʻra, ajrim sababalariga ichkilik va giyohvandlik 52%, oilaga xiyonat 46%, oiladagi zoʻravonlik 43.7%, xarakterlar mos kelmasligi 35%²larda izohlangan.

Rossiya Federatsiyasida qanday mexanizm joriy qilingan? Kelajakda oila barqaror saqlab qolish uchun qanday ishlar qilinishi kutilmoqda? Shuni unutmaslik lozimki, nikohning buzilishi, birinchi navbatda, his-tuygʻuga bogʻliq boʻlib, bu huquq doirasiga kirmaydi. Insonlar bir-birini sevmasa, oʻzaro munosabatlarga ega boʻlmasa, qonunchilik bu yerda yordam bermaydi. Rossiyada amalaga oshirilayotgan ishlar:

Hukumat tomonidan joriy etilgan choralardan biri – ajralish jarayonining murakkabligi ajrim uchun berilgan muddatning uzoq bulishi. Hozirgi kunda bu ariza berilgan kundan 3 oy muddat belgilangan³. 2013-yili Rossiya Dumasi tomonidan ishlab chiqilgan taklifga koʻra, ajrim uchun toʻlanadigon davlat bojini oshirish yaxshi samara beradi. Yangi oilalarni

Shuni unutmaslik lozimki, nikohning buzilishi, birinchi navbatda, his-tuygʻuga bogʻliq boʻlib, bu huquq doirasiga kirmaydi. Insonlar bir-birini sevmasa, oʻzaro munosabatlarga ega boʻlmasa, qonunchilik bu yerda yordam bermaydi.

2 Лагойда Н.Г., Бадараев Д.Д. К проблеме браков и разводов в Республике Бурятия (социологический аспект), 2013. УДК 316.356.2(571.54)

3 Гименей на цепи // Российская газета. Федеральный выпуск – №7144 (276). 05.12.2016. Электронный ресурс. – URL: <https://rg.ru/2016/12/05/proceduru-razvoda-v-rossii-predlozhi>

*Ajrimning asosiy
sabablaridan
bo'lgan
farzandsizlik
hisoblanadi.
Shunday oilalarga
tibbiy yordam
ko'rsatish,
sog'lomlashtirish
markazlari va
tibbiy xizmatlar
uchun davlat
tomonidan moddiy
yordam berish.
Bularning barchasi
Rossiya hukumati
tomonidan oilaning
barqarorligi va
mustahkamligini
saqlab qolish
uchun ishlab
chiqarilgan chora
va tadbirlardir
bo'lib, ulardan
hozirgi kunda
samarali
foydalanilmoqda.*

uy-joy bilan ta'minlash, bundan maqsad – birga yashaydigan qaynona va qaynotalar bosimini kamaytirish ko'zda tutilgan bo'lib, Yoshlarni oilaga tayyorlash bepul davlat dasturi joriy etilmoqda. Yangi hayotga moslashmagan yoshlar orasida turmush buzilish holatlari barchamizga ma'lum. Bunday dasturlar turmush qurmoqchi bo'lgan yoshlarni o'zaro sevgi, hurmat, sadoqat asosida oila qurishga va oilada nizolarning oldini olinishiga xizmat qiladi⁴. Ajralish arafasida turgan oilalarga psixologik yordam tizimini ishlab chiqish. Ajrimning asosiy sabablaridan bo'lgan farzandsizlik hisoblanadi. Shunday oilalarga tibbiy yordam ko'rsatish, sog'lomlashtirish markazlari va tibbiy xizmatlar uchun davlat tomonidan moddiy yordam berish. Bularning barchasi Rossiya hukumati tomonidan oilaning barqarorligi va mustahkamligini saqlab qolish uchun ishlab chiqarilgan chora va tadbirlardir bo'lib, ulardan hozirgi kunda samarali foydalanilmoqda.

Statistik ma'lumotlar va ularning tahlili. Turkiya statistik agentligi o'tgan yili nikoh va ajralishlar natijalarini e'lon qildi. Agentlikni ma'lumotiga ko'ra, ajralish, birinchi navbatda bu oiladagi mas'uliyatsizlik deb baholanib, bu mamlakatda ajralishning asosiy sababiga aylandi. Ikkinchidan, xiyonat tufayli 14 foiz oila ajrim so'ragan. Uchinchidan, moddiy jihatdan oilani ta'minlay olmaslik 9 foizni tashkil etgan⁵. Turkiyada ajralish hodisasi shu holatga yetib keldiki, Turkiya Parlamenti vakillari mamlakatning har bir viloyatida oila maktablarini ochish taklifi bilan chiqdi. Shunga bog'liq ravishda, birinchidan Turkiya hamjamiyati oila instituti tomonidan tashkil etilgan ta'lim dasturida 780-105 kishi qatnashdi. Ikkinchidan, har bir fuqaro oilaviy ta'lim dasturining veb saytida ro'yxatdan o'tgan holda har kuni onlayn qatnashishi mumkin. U yerda oilaviy hayotning barcha jabhalari, nikohning birinchi oylari, bola tug'ilishi va tarbiyasi, nikohning inqiroz davrlari va oilaga tegishli dolzarb mavzularni topish mumkin. Uchinchidan, vazirlik yana bir modul ustida ishlamoqda. Bu "O'zingga mos juftlik top" (muallif tarjimai) deb nomlanib, unda o'sib kelayotgan avlodni o'ziga mos turmush o'rtoq topishda va munosabatlarda qanday yo'l tutishni psixolog sotsiolog va tibbiyot mutaxassislarining fikrlari va statistik ma'lumotlar berib borilishi ko'zda tutilgan⁶.

⁴ Как уменьшить количество разводов. // Инфо-Ислам. Общероссийское информационное агентство мусульман. – URL: http://www.info-islam.ru/news/kak_umenshit_kolichestvo_razvodov/

⁵ <https://restproperty.ru/news/prichiny-razvodov-v-turtsii/> 01.03.2023 год

⁶ https://turkey-is.ru/blog/article/razvod_v_turcii 01.03.2023 год

TUIK ijtimoiy so'rovnomasining taqdim etishicha, 59.9 foiz oilalar sovchilar orqali oila qurishadi. Turkiyada ajrim munosabatlarida har qanday holatga qaramasdan ayol kishi qonunan qattiq himoya qilinadi, lekin erkak kishi moddiy va ma'naviy zararni qoplash uchun tovon talab qilishi, hattoki qaramog'ida qolgan farzandlar uchun aliment olishi mumkin⁷. Turkiyaning madaniy merosi islom sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, aholining 89.9 foizi islom diniga e'tiqod qiladi va tabiiyki, islom dini ko'p bolalilikni targ'ib etadi⁸. Turkiya jamiyatida oilalarni saqlab qolishda farzandlarning roli katta ahamiyatga ega va ota-ona munosabatlarini bog'lab turishda esa bunga yetadigani yo'q.

Janubiy Koreya – davlat madaniyati va turmush-tarzi o'zgachaligi bilan sharq mamlakatlari ichida ajralib turadi. Oila mezonlarini saqlab qolish, uning barqarorligini ta'minlash boshqacha tus olgan. So'nggi yillarda Janubiy Koreyada nikohlarning 40 foizi ajralishlar bilan tugamoqda. 2021-yilda nikohning o'rtacha yoshi erkaklarda 33.4, ayollarda esa 31.1 yosh deb qayd etilgan. 2006-yildan beri hukumat demografik inqirozni yumshatish maqsadida ko'p bolalilikni targ'ib qilib kelmoqda. Ommaviy axborot vositalarida, ish joylarida va jamoat transportlarida turli xil banner-plakatlar bilan oilalarni farzand ko'rishga undamoqda. Shuningdek, birinchi farzandga 1 mln von (860 dollar), ikkinchi farzandga 5 mln, uchinchi farzandga 10 mln bonuslar taklif qilmoqda⁹.

The Korea Times nashrining yozishicha, poytaxt regionlarida 25–34 yoshgacha ayollarning 60 foizi turmushga chiqmagan. Shu munosabat bilan shahar hokimi yilda 3 marotaba 27–40 yoshgacha bo'lgan turli xil kasb bilan faoliyat yuritadigan o'qituvchi, shifokor va ofis xodimlariga tadbir uyushtirib, turli xil o'yinlar, viktorinalar o'tkiziladi va oxirida biri-biri bilan uchrashishni xohlaydigan 3 ta odam tanlash so'raladi. Lekin shunga qaramay, aholi o'rtasida demografik o'sish deyarli kuzatilmayapti. Koreya oila institutlarining oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri oilaga targ'ib qilish, farzand ko'paytirishga motivatsiya berish bo'lsa, yana bir maqsadlaridan biri oilalarni buzilishlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Buni ortidan turli xil soha vakillari bosh qotirmoqda va shuningdek, mavjud qonun va qarorlar takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, 1953-yilda qabul qilingan qarorga ko'ra, erning ayoliga xiyonati jinoiy ish sifatida ko'riladi. Gender yuqoriligi bo'lgan bu davlatda (142

TUIK ijtimoiy so'rovnomasining taqdim etishicha, 59.9 foiz oilalar sovchilar orqali oila qurishadi. Turkiyada ajrim munosabatlarida har qanday holatga qaramasdan ayol kishi qonunan qattiq himoya qilinadi, lekin erkak kishi moddiy va ma'naviy zararni qoplash uchun tovon talab qilishi, hattoki qaramog'ida qolgan farzandlar uchun aliment olishi mumkin.

⁷ <https://www.turkishadvokat.com/> (дата обращения 25.02.2023 год)

⁸ <https://www.aa.com.tr> дата обращения 25.02.2023 год

⁹ <https://regnum.ru/news/society/3535932.html> 2.03.2023 год

The Guardian nashrining ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda ajralishlar sonini kamaytirishga qaratilgan qonun, ajralmoqchi er va xotinning arizalari FHDY organlari tomonidan tasdiqlash uchun 30 kun talab qiladi, bu vaqt ichida tomonlar arizani qaytarib olishlari mumkin. Shu bilan birga, nikohni bekor qilishni tasdiqlash uchun 30 kundan keyin, lekin ariza topshirgandan so'ng 60 kundan kechikmasdan ariza tasdig'ini olishingiz kerak, aks holda ariza o'z kuchini yo'qotadi.

davlatdan 117-o'rin)¹⁰. Turmush o'rtog'ining aybi tasdiqlansa 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etiladi.

Janubiy Koreya qonunlariga ko'ra, asosiy ajralish sababchisi bo'lgan fuqaro ajrim uchun ariza berishga haqli emas. Ariza ikkala tomonning xohishiga ko'ra qabul qilinadi¹¹. Xitoyda 2021-yil yil hisobotiga o'tgan yilga nisbatan ajrimlar soni 70%ga kamaygan. 2021-yilning birinchi choragida 296 ming ajrim arizasi topshirishgan bo'lsa, 2020-yil xuddi shu davrida 105 mln odamni tashkil etgan, buning asosiy sababi shundaki, 1-yanvar kuni Xitoyda yangi qonun kuchga kirdi. Bunga ko'ra ajralish yoqasida turgan oilalar uchun yaxshilab o'ylash uchun qo'shimcha 30 kun qo'shib berildi. Advokatlarning aytishicha, hukumat odamlarni shoshqaloq harakatlardan himoya qilishni rejalashtirgan.

The Guardian nashrining ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda ajralishlar sonini kamaytirishga qaratilgan qonun, ajralmoqchi er va xotinning arizalari FHDY organlari tomonidan tasdiqlash uchun 30 kun talab qiladi, bu vaqt ichida tomonlar arizani qaytarib olishlari mumkin. Shu bilan birga, nikohni bekor qilishni tasdiqlash uchun 30 kundan keyin, lekin ariza topshirgandan so'ng 60 kundan kechikmasdan ariza tasdig'ini olishingiz kerak, aks holda ariza o'z kuchini yo'qotadi¹². Xitoyda ajralish arafasida turgan oilalarga konsultatsiya xizmati mavjud bo'lib, ko'ngilsiz va og'ir vaziyatlarda, xiyonat, ruhiy bosim sodir bo'lgan paytda murojaat qilishadi. Er-xotin oila mustahkamligiga barobar javobgar bo'lganligi sababli konsultatsiyaga birga kelishadi va bizda onlayn maslahat berish xizmati ham bor, deb izohlaydi Chju Shenyun konsultatsiya markazi direktori. Bunday xizmatning o'zi firmaga 150 ming yevro sof foyda keltiradi¹³.

Hindiston dunyodagi eng kam sonli ajralishlar bilan bir necha yillardan beri barcha mamlakatlar orasida ajralish ko'rsatkichi bo'yicha eng past hisoblanadi. Hozirda har ming oilaga 13 ta ajrim to'g'ri keladi, yani 1%ga teng. Sabablarini o'rganar ekanmiz, oila buzilishi Hindistonda xalq orasida ajralishga bo'lgan salbiy mentalitet shakllangan, ajralmoqchi bo'lgan oila har bir qarindoshlariga sababini tushuntirib berishi kerak va ular ruxsat bersagina ajrim bo'ladi, chunki ajralish butun shajarani sharmanda qiladi.

Ajrimdan so'ng, ayollar uchun 2-marta turmushga chiqish deyarli imkoni yo'q, ayollar ota uyiga bora olmaydi va uni qayta qabul

¹⁰ <https://dzen.ru/a/Y4cNLoU5YjKyvuYy> (01.03.2023 год)

¹¹ <https://www.yesasia.ru/article/1043913> (дата обращения 25.02.2023 год)

¹² <https://pravo.ru/interpravo/news/view/122021/> (дата обращения 25.02.2023 год)

¹³ <https://ru.euronews.com/2021/03/23/china-divorce-record> (дата обращения 28.02.2023 год)

qilishmaydi. Sababi – singllari va aka-ukalari oila qurishda muammolarga duch keladi, chunki bunday oila bilan hech kim quda-anda bo‘lishni xohlamaydi. Qishloq joylarda ajrashgan ayollar hayoti ancha qiyin kechadi. Ish topish, hattoki ijaraga yashash uchun joy topish ham muammo hisoblanadi. Yana bir jihati ajrashgan ayolning barcha mol-mulki erining hisobiga o‘tkaziladi¹⁴. Hindistonda ajralishning yana bir mushkul tomoni ajrim jarayonining uzoq davom etishi bo‘lib, bu 10 yilgacha cho‘zilishi mumkin.

Advokatlar xizmati qimmat, erkaklardan sobiq ayolini keyingi turmushga chiqib ketgunga qadar pul bilan ta‘minlash (yuqorida aytganimizdek, ayollar uchun ikkinchi marta turmush qurish deyarli yo‘q). Ajralish uchun ariza berish undan-da mushkul. Buning uchun avval ruhoniyni topib undan nikoh o‘qiganligini tasdiqlovchi yozma hujjat olib, so‘ngra sudga ariza topshiriladi. Hindistonda ham Turkiya kabi ajrimdan so‘ng farzandlar ota bilan qoladi¹⁵. Yaponiyada 1947-yilda Yapon konstitutsiyasi qabul qilingandan so‘ng, erkak va ayol huquqi tenglashib, ajrimdan so‘ng mol-mulk teng bo‘linadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda Yaponiya ajralishlar soni bo‘yicha dunyoda 26-o‘rinda turadi¹⁶.

Ajralishning asosiy sabablaridan biri iqtisodiy erkinlikdir. Ya‘ni er-xotin mustaqil daromadga ega, zamonaviy ayollar o‘qib bilim olishi, nufuzli joylarda ishlashi, yuqori lavozimga ega bo‘lishi, turmush o‘rtog‘idan ajralgan holda ham yashashi mumkinligini ko‘rsatmoqda. 20–24 yoshgacha oila qurgan ayollarning 40% yaqini ajralishi qayd etilgan. Hukumat va oila institutlari ajrimlarning oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlar yo‘lga qo‘ydi¹⁷. Masalan, 1995-yilda bola va oilaga g‘amxo‘rlik qilish 1999-yilda Oilaviy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash 2007-yildan Work life balance (Oilaviy hayotni ish bilan bog‘lash) dasturi qabul qilingan bo‘lib, davlat muassasalarida mehnat qilayotgan oilali ayollarga yordam berishdan iboratdir. Bularning negizida oilalarning mehnat faoliyati oilaviy nizolarga sabab bo‘lmasligi uchun va jamiyatda ajralishning oldini olish, har qanday vaziyatda ham oilaning ahamiyati yuqoriligi, shuningdek, mehnat bilan oilaning uyg‘unligini ta‘minlash, farzand ko‘rishni oshirish farzandli ayollarga imtiyozlar taqdim etishi nazarda tutilgan¹⁸.

Ajralishning asosiy sabablaridan biri iqtisodiy erkinlikdir. Ya‘ni er-xotin mustaqil daromadga ega, zamonaviy ayollar o‘qib bilim olishi, nufuzli joylarda ishlashi, yuqori lavozimga ega bo‘lishi, turmush o‘rtog‘idan ajralgan holda ham yashashi mumkinligini ko‘rsatmoqda. 20–24 yoshgacha oila qurgan ayollarning 40% yaqini ajralishi qayd etilgan. Hukumat va oila institutlari ajrimlarning oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlar yo‘lga qo‘ydi.

¹⁴ https://www.gazeta.ru/lifestyle/style/2021/05/a_13597346.shtml?updated (дата обращения 25.02.2023 год)

¹⁵ <https://fem-city.livejournal.com/92349.html> (дата обращения 25.02.2023 год.)

¹⁶ Особенности развода в современной Японии. Воркина К.С./МИД России/ ORCID: 0000-0002-3804-3925 электронный журнал

¹⁷ <https://fem-city.livejournal.com/92349.html> (дата обращения 25.02.2023 год)

¹⁸ Labor Situation in Japan and its Analysis: Detailed Exposition 2012/2013. (Трудовая ситуация в Японии и ее анализ: подробное описание 2012/2013 гг.)// The Japan Institute for Labour Policy and Training. (Японский институт политики и профессиональной подготовки). – С. 38

***Yaponiyada
ajrimning oldini
olish uchun yana
bir mexanizm joriy
etilgan. Bunga
ko'ra, ajralishga
qaror qilgan
juftlik ma'lum
vaqt mobaynida
alohida yashash
tavsiya etiladi.
Bundan maqsad
juftlik qancha
muddat alohida
yashay oladi?
Er yoki ayolga
turmush o'rtoq
kerakmi? Ularning
moddiy-manaviy
holati bunga
ko'nika oladimi?
Ko'pincha bu bilan
yaxshi natijalarga
erishilmoqda,
ayniqsa, farzandli
oilalar uchun bu
jarayon nihoyatda
samara bermoqda.***

Yaponiyada ajrimning oldini olish uchun yana bir mexanizm joriy etilgan. Bunga ko'ra, ajralishga qaror qilgan juftlik ma'lum vaqt mobaynida alohida yashash tavsiya etiladi. Bundan maqsad juftlik qancha muddat alohida yashay oladi? Er yoki ayolga turmush o'rtoq kerakmi? Ularning moddiy-manaviy holati bunga ko'nika oladimi? Ko'pincha bu bilan yaxshi natijalarga erishilmoqda, ayniqsa, farzandli oilalar uchun bu jarayon nihoyatda samara bermoqda.

Olingan xulosa va natijalar. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda O'zbekistonda oilalar buzilishi ayanchli holatda bo'lib, respublika miqyosida 2022-yil 1-yanvardan 1-iyungacha 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu – o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p. Xususan, sudlarning tegishli qarorlariga ko'ra, 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida – 5 812 ta ajrim holati qayd etildi. Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Har bir oila jamiyatning o'zak negizi hisoblanadi va aniqki, bir oilaning ajralishi jamiyatga ta'sir etmasdan qo'ymaydi. Bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish uchun xorijiy tajribalarga tayanib quyidagilar tavsiya etiladi:

Ajrim uchun ariza bergan oilalarni ajralish muddatini 6 oygacha oshirish (ariza bergan kundan keyin 3 oy o'tgach amalga oshiriladi) agar ularning farzandi bo'lsa, ko'proq vaqt berish. Berilgan vaqt oralig'ida munosabatlar ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Oliy talim muassasalarida milliy mentalitetimizdan kelib chiqib oilaviy mezonlarni shakllantirish, oila ham bir kichik jamiyat ushbu oilada har bir inson o'z o'rnini o'z fikriga ega bo'lishi kabi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish.

Oilaviy nizolarga duch kelganda, uning yechimini topish uchun bepul malakali psixolog va diniy ilmga ega bo'lgan mutaxassislar mavjud onlayn konsultatsiya va 24 soat xizmat ko'rsatadigan qo'ng'iroq (Call centre) xizmatlarini tashkil etish.

Ajralish arafasida turgan oilalar holatini o'rganib, ularga muammo qaynota-qaynona, qaynisingillar tomonidan bosimlarni kamaytirish uchun uy-joy masalalarida yordam berish. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda va mahalliy telekanallarda oilalarning buzilishi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi va farzandlar ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Shu mavzuda ko'rsatuvlar tayyorlash. Xiyonat tufayli ajralishayotgan oila a'zolarini ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish. Ajrim uchun ariza bergan oilalarning ajrim muddatni uzaytirish va bir muddat alohida yashash takliflarini berish.

Farzandsizlik tufayli ajralishayotgan oilarga moddiy va tibbiy yordam berish dasturini ishlab chiqish. Oila institutlari tomonidan 18 yoshdan

oshganlarga “Oilaga tayyorlov” yoki “Qanday inson bilan oila qursam ekan?” bepul o‘quv dasturlarni ishlab chiqish. FHDY bo‘limlarda turli xil plakatlar va IQ (Intelligence Quotient) aqliy salohiyatni belgilovchi, va dunyoqarashga mos keluvchi testlarni joriy qilish. Bu bilan birga, yoshlarning bir-biriga mos kelishini aniqlash uchun. O‘zbekiston aholisi islom diniga mansub bo‘lib, ish joylarda dinimizdan kelib chiqib, oila muqaddasligini, islomda er-xotin vazifalari, bir-birga sadoqat, mehr, farzand tarbiyasida butun oilani ahamiyati, davra suhbatlarni o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=19814618>
2. Н.Г. Лагойда, Д.Д. Бадараев. *К проблеме браков и разводов в Республике Бурятия (социологический аспект)*, 2013. (УДК 316.356.2(571.54))
3. *Гименей на цепи*. // Российская газета. Федеральный выпуск №7144 (276). 05.12.2016. – URL: <https://rg.ru/2016/12/05/proceduru-razvoda-v-rossii-predlozhili-uslozhnit.html>
4. *Как уменьшить количество разводов?* // Инфо-Ислам. Общероссийское информационное агентство мусульман. – URL: http://www.info-islam.ru/news/kak_umenshit_kolichestvo_razvodov/
5. <https://restproperty.ru/news/prichiny-razvodov-v-turtsii/>
6. https://turkey-is.ru/blog/article/razvod_v_turcii
7. <https://www.turkishadvokat.com/> (дата обращения 25,02,23)
8. <https://www.aa.com.tr>
9. <https://regnum.ru/news/society/3535932.html>
10. <https://dzen.ru/a/Y4cNLoU5YjKyvuYy>
11. <https://www.yesasia.ru/article/1043913>
12. <https://pravo.ru/interpravo/news/view/122021/>
13. <https://ru.euronews.com/2021/03/23/china-divorce-record>
14. https://www.gazeta.ru/lifestyle/style/2021/05/a_13597346.shtml?updated
15. <https://fem-city.livejournal.com/92349.html> (дата обращения 25.02.2023 год)
16. Особенности развода в современной Японии. Воркина К.С./МИД России/ ORCID: 0000-0002-3804-3925 электронный журнал.
17. <http://www.garbagenews.net/archives/1892492.html>
18. *Labor Situation in Japan and its Analysis: Detailed Exposition 2012/2013. (Трудовая ситуация в Японии и ее анализ: подробное описание 2012/2013 гг.)// The Japan Institute for Labour Policy and Training. (Японский институт политики и профессиональной подготовки). – С. 38*
19. Иномдонова Д.А. Темиров З. А. Демографические процессы как экономический и социально географический объект, 2022. Журнал: Экономика и социум. – С. 97.